

### O'ZBEK TILIDA QO'LLANADIGAN INGLIZCHA SO'ZLARNING AYRIM XUSUSIYATLARI

Nuraliyeva Shoxistaxon  
Farg'onan Davlat Universiteti  
chet tili fakulteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek tiliga ingliz va boshqa tillardan o'zlashgan va o'zlashayotgan so'zlar va ularning o'zbek tili leksikasiga ta'siri ta'kidlanib o'tilgan.

**Kalitso'zlar:** o'zlashgan so'zlar, xorijiy so'zlar, informatsion texnologiyalar.

O'zbek tili leksikasiga o'zlashishini kuzatadigan bo'lsak, 20 dan ortiq til o'zlashmali mayjud, shuningdek, tilimizda o'zlashishi passiv bo'lgan bir qancha tillarning o'zlashmali ham uchrab turadi. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda "o'zlashgan" ayrim leksemalar rus tilining tabiatiga moslashgan holda tilimizga o'zlashgan. Masalan, *championat, trenirovka, tanketka, kovboyka*, kabi leksemalar o'ngida *-at, -ka* singari elementlarning kelish hollari inglizcha leksemalarning tabiatidan yiroq hisoblanadi. Shuningdek, bu kabi hodisani *xaker, xuligan* va *xoil* kabi leksemalarda h fonemasi o'rniga *x* fonemasi ishlatilganidan ham sezish mumkin.

O'zbek tili leksikasining katta qismini o'z qatlam leksemalari tashkil etadi. Lug'at boyligimizdagi forscha-arabcha, shuningdek, ruscha o'zlashma leksemalarning ham miqdori boshqa til o'zlashmalariga qaraganda katta bo'lib, hozirda ularning qatoriga inglizcha o'zlashmalarini ham kiritish mumkin. Eski nashrdagi "o'zbek tilining izohli lug'ati" ga 80 ga yaqin inglizcha o'zlashma so'zkiritilgan bo'lsa, yangi nashrdagi "o'zbek tilining izohli lug'ati" ga 500 dan ortiq inglizcha o'zlashma so'zlar izohlangan.

Shuningdek, "O'zbek tiliga o'zlashgan inglizcha so'zlearning izohli lug'ati" da 350 dan ortiq so'z, bundan tashqari, vaqtli matbuotda qo'llanayotgan neologizmlar, "Inglizcha-o'zbekcha-ruscha axborot texnologiyalari va internetga oid qisqacha atamalar lug'ati" kabi inglizcha o'zlashmalar hisobiga mingdan ortiq leksema o'zlashganini aniq aytish mumkin. Kundalik so'zlashuvda ishlatilayotgan va qo'llanilishi faol bo'lgan ayrim leksemalarning "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan joy olmaganini kuzatish mumkin. Masalan, *imij, koka-kola, minimarket, gipermarket, chizburger, xot-dog, chipsi, netbuk, blutus, flesh xotira, vay-fay, planshet, intranet* kabi ko'plab leksemalar ham izohli lug'atimizdan joy olishi zarur. Har bir tilda o'ziga xos o'rinsiz ishlatiladigan o'zga til unsurlari mavjud bo'lib, ular varvarizimlar sifatida

izohlanadi. Hozirgi paytda yoshlar nutqida okey (OK - all correct) – ishlar besh; va u (wow) – ijobiy ma'nodagi his –hayajonni ifodalovchi undov so'z; o yiss (o, yess) – tasdiq ma'noni ifodalovchi so'z; o,best -(best) ishlar a'lo; hello (hello) - salom; bay (bai) – xayr kabi ingliztili ta'sirida o'zlashgan varvarizimlar ham uchrab turadi.

Zeroki, so'z o'zlashish jarayoni, o'zgatilning madaniyat, urf-odat, o'ziga xos rasm-rusumlar bilan bevosita bog'liqdir. Ingliz tili hind-yevropa tillari oilasining german guruhiga kiradi. Inglizcha so'zlarning o'zlashishi nafaqat o'zbek tiliga, balki sobiq ittifoq tarkibidagi rus-chechen va gruzin kabi boshqa tillarga ham sezilarli ta'sir qildi. Biroq rus tili ingliz tili singari hind-yevropa tillari oilasiga mansub bo'lgani bois, ularda bu tilning ta'siri tilimizga nisbatan faolroq sezilishini kuzatamiz. O'zbek tiliga inglizcha o'zlashma so'zlarning o'zlashish yo'llari turlicha yo'sinda bo'ladi. Qator yangi tushunchalar va hodisalar aynan o'zbekcha nomlanishga ega bo'lmasa yoki o'zlashma so'z tushunchaning (sinonimiga nisbatan) turli qirralarini ifodalash va nomlash jihatidan o'zining ijobiy va samarali ta'siriga ega bo'lsa, shundagina to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish yoki aynan o'zlashtirish usulidan foydalanilmoqda.

Masalan, *chat* (*chat*)-suhbat, *bifshteks*-(*beefsteaks*)—qovurilgan mol go'shtini qayлага solib beriladigan ovqat turi, *mani* (*money*)-pul, *boyrend* (*boyfriend*) - do'st, o'rtoq kabi so'zlar ham ayrim reklama, bolalar kiyim-kechaklari yoki aholi e'tiborini tortuvchi buyumlarda aks etmoqda. Izoh isboti sifatida E.A'zamovning "Bayramdan boshqa kunlar" qissasidan olingan parchaga e'tibor qaratamiz. Asar qahramonlaridan sanalgan Safuraning tilidagi parazit so'zlar ko'plab qo'llanishini kuzatish mumkin. «Umuman, ko'p gapirib og'zini charchatmaydi demoqchi boshlagan fikrini biron bitta alomatroq so'zga jamlab qo'ya qoladi. Xuddi mashhur «O'n ikki stul» dagi tantiq Ellochkaga o'xshab. Masalan: «bravo», «ujas», «genialno», «shik», «se lya vi», «chi gap», «oybay», «salut», «chao», «okey» va hokazo.

Bu baynalmilal-qurama so'zlarni u doimo xitob bilan, ohangini keltirib talaffuz qiladi. *Siz o'zbekcha gapiravering, u ana shu «til» da javob qaytaraveradi. Hello-o! BBlarga (Bakir bilan Bargidan demoqchi) salut deb qiyqiradi u telefondayoq: ismlarini to 'liq aytish ham unga malol kelsa kerak yoki oliftagarchilikkamikin ?..* Bu so'zlar, odatda, tushuncha ifodalanishi jihatidan ingliz yoki boshqa tillarda o'z ekvivalentiga ega bo'lsa-da, biroq ulardan uslubiy jihatdan u yoki bu xususiyatiga ko'ra ma'noni tasviriy ifodalashiga ko'ra farqlanadi.

Ingliz va rus tillari bir til olasiga mansub bo'lgani bois inglizcha so'zlarning rus tilida o'zlashish jarayoni o'zbek tiliga nisbatan faol va miqdoran ko'pchilikni tashkil etadi. Tilshunos olimlar ta'kidlaganidek, ko'pchilik inglizcha o'zlashma so'zlar tilda, avvalo, okkozional (muvaqqat) xarakterga ega bo'ladi, vaqt o'tishi bilan okkazional

neologizmlar o'zining bilingvism (ikkitillilik) xususiyatini kengaytira boshlaydi. Hozirgi paytda gazeta, jurnal, radio eshittirish va teleko'rsatuvlarda muxlislarni o'ziga jalb etadigan mavzular nomi inglizcha so'zlar va ularning urf-odatlari bilan bog'liq holatlar tez-tez ko'zga tashlanadi. Mashhur siyosiy arboblar, siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar ham o'zlarining nutqlarida sohalariga mos holatda o'rni bilan inglizcha o'zlashmalarga murojaat qilib turishadi. Manbalarda so'z o'zlashtirishning ikki yo'li borligi ta'kidlanadi:

1) jonli so'zlashuv orqali so'z o'zlashtirilishi. Bunda boshqa til so'zlar o'zbek tiliga mahalliy aholining og'zaki nutqi orqali o'tadi. Masalan, ruscharami, klubnika, podnos so'zlar o'zbek tilining jonli so'zlashuvidan rom, qulubnay va patnis deb talaffuz qilingan, keyinchalik o'zbek adabiy tiliga ham shu shaklda o'zlashgan;

2) bosma manbalar orqali so'z o'zlashtirilishi. Bunda boshqa tildagi matnni o'zbek tiliga tarjima qilish yoki o'zbek tilida yozilgan maqolalarda, ilmiy va badiiy asarlarda boshqa til so'zlarini (ayniqsa, termin va atamalarni) ishlatish orqali boradigan o'zlashtirish nazarda tutiladi. Matematikadagi katet, gipotenuza, adabiyotshunoslikdagi kulminatsiya, syujet kabi terminlar, ocherk, roman, povest kabi so'zlarshuv yo'li bilan o'zlashtirilgandir.

Ko'pgina tilshunoslar so'zo'zlashishining asosiy sababi sifatida quyidagilarni ko'rsatishadi: xalqlarning tarixiy aloqasi; yangi predmet, jarayon va tushunchani nomlash zaruriyati; nutqiy tejamkorlik imkoniyatiga intilish; ikki tildan foydalanishnin galohida turi; chet tili so'zlarini yangilik sifatida qo'llash; biror millatning o'ziga xos udum yoki rasm-rusumlariga nisbatan ko'r-ko'rona ergashish. Umuman olganda, so'z o'zlashish jarayoni tilning doimiy harakatdagi qonuni hisoblanib o'zbek tili leksikasiga o'zlashishi sezilarli darajada ta'sir qilgan 20 dan ortiq ti lo'zlashmalar mavjud.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tilimizga ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarning o'zlashishida semantik tuzilishidagi o'zgarishlari ham har xil bo'lган. Shunga ko'ra, ularni o'z ma'nosini saqlab qolgan o'zlashmalar, so'z ma'nolarining kengayishi, so'z ma'nolarining torayishi, o'zlashmalarining yangi ma'no kasb qilishi kabi til hodisalariga uchragan o'zlashmalar sifatida tasniflab o'rganish mumkin.

### Adabiyotlar:

1. Nuraliyeva, S. (2023). USE OF WORDS IN OYBEK 'S SKILL OF ARTISTS. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(5), 18-22.
2. Shoxistaxon, N. (2023). OYBEK IJODI—YOSHLAR UCHUN MAHORAT MAK TABI. *Gospodarka i Innowacje.*, 36, 248-250.

3. Dildora, N. Social AK psychological characteristics of families on the verge of divorce 2021. *Special Issue on Engineering Technologies and Management C-3889-3897.*
4. Абдилоев, Ш. О. (2023). ЎЗБЕК, РУС, ТОЖИК ВА НЕМИС ТИЛЛАРИДАГИ ЗООНИМ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ЎХШАШ ВА ФАРҚЛИ ХУСУСИЯТЛАРИ. *IQRO JURNALI*, 3(1), 156-159.
5. Musinovna, S. H., & Mirxamidovna, M. G. (2022). Paremiological Units in Uzbek, English and Russian. *International Journal of Formal Education*, 1(10), 18-21.
6. Sotvaldieva, K., Mirzayeva, D., & Odilov, M. (2023, May). THE RELATIONSHIP BETWEEN AFFIRMATION AND NEGATION. In *International Conference on Education and Social Science* (Vol. 1, No. 1, pp. 156-158).
7. Sotvaldieva, K., & Odilov, M. (2022). LINGUISTIC UNITS EXPRESSING NEGATION IN DIFFERENT SYSTEMIC LANGUAGES. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(13), 544-548.
8. Kholmatova, E., & Sotvaldieva, K. (2023, April). THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF ADJECTIVE WORDS USED IN THE FIELD OF EDUCATION. In *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education* (Vol. 1, No. 4, pp. 21-23).
9. qizi Usmonova, U. H., & Sotvaldieva, K. M. (2023). A COMPARATIVE ANALYSIS OF UZBEK AND ENGLISH SOMATIC PROVERBS. *GOLDEN BRAIN*, 1(13), 238-242
10. Murotova, D. (2022). TURLI TIZIMLI TILLARDA UZR SO'RASHNI IFODALOVCHI FONETIK, LEKSIK VA MORFOLOGIK TIL VOSITALARI. *Science and innovation*, 1(B8), 260-262.
11. Абдилоев, Ш. О. (2023). ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАР—ХАЛҚ ҲАЁТИНИНГ ИНЬИКОСИ. *PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI*, 1(2), 157-159.
12. Habibiloyevna, M. D. (2021). The Semantic Analysis of Slang in The Movie "School". *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 3, 83-85.
13. Madazizova, D. X. (2021). Some Linguistic Peculiarities Of Slang. *Scientific progress*, 2(7), 1277-1278.
14. Xabibiloyevna, D. M. (2022). VARIOUS SCIENTIFIC APPROACHES TO 'SLANG'. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 303-305.
15. Madazizova, D. H. (2016). Качества, необходимые успешному преподавателю иностранного языка. *Ученый XXI века*, (5-1 (18)), 28-29.